



# “ALISHER NAVOIY VA XXI ASR”

**8-ULUSLARARO KONFERANSI MATERIALLARI**

*Toshkent-Boku, 2023-yil 6-7-fevral*

# “ƏLİŞİR NƏVAI VƏ XXI ƏSR”


**8-ci BEYNƏLXALQ KONFRANS MATERIALLARI**

*Daşkənd-Bakı, 6-7 fevral 2023-cü il*

# “ALISHER NAVO'I AND THE 21st CENTURY”

**8th INTERNATIONAL CONFERENCE PROCEEDINGS**

*Tashkent-Baku, February 6-7, 2023*



**Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

**Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi  
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot Instituti**

**«ALISHER NAVOIY VA  
XXI ASR»**

**mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari**

**Toshkent – Boku – 2023**

Əlişir Nəvai adına  
Daşkənd Dövlət Özbək dili və ədəbiyyatı Universiteti

Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası  
Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu

“ƏLİŞİR NƏVAİ VƏ  
XXI ƏSR”

mövzusunda beynəlxalq konfransın materialları

Daşkənd - Bakı - 2023

**Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek  
Language and Literature**

**Azerbaijan National Academy of Science  
Institute of Literature named after Nizami  
Ganjavi**

**The Proceedings of the International Scientific-Theoretical  
Conference**

**«ALISHER NAVO'I AND THE  
21<sup>st</sup> CENTURY»**

Tashkent – Baku – 2023

## MUNDARIJA

**İsa HƏBİBBƏYLİ.** Əbədiy aşarlığın Əlişir Nəvai nümunəsi

**Shuhrat SIROJIDDINOV.** Alisher Navoiy o'ziga ta'lim bergan ustozlari haqida

### I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY-ILMIY MEROSINING BASHARIYAT TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI

#### BİRİNCİ OTURUM. ALİŞİR NEVAİ BİLİMSƏL MİRASININ BEŞƏRİ DÜŞÜNCE TARİHİNDEKİ YERİ

##### PANEL I. THE PLACE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ALISHER NAVOI IN HUMAN CIVILIZATION

<b>Nurboy JABBOROV.</b> Alisher Navoiy va maomiy ahli	77
<b>Vahit TÜRK.</b> Bedâyiü'l-Bidâye ve Türkiye'deki Divan Yayınlarında Bulunmayan Şiirler	82
<b>Nüşabə ARASLI.</b> Nəvainin fəlsəfi qəsidələrində Xaqani təsiri	30
<b>Nusratullo JUMAXO'JA.</b> "Ashraquat..." g'azalining sehr-u sinoatlari	36
<b>Boqijon TO'XLIYEV.</b> Alisher Navoiy ijodi – fenomenal hodisa sifatida	44
<b>Yaşar QASIMBƏYLİ.</b> Dahi dastançının misilsiz lirikası	44
<b>Nozliya NORMURODOVA.</b> Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari haqida	58
<b>Aftondil ERKINOV.</b> Navoiyning Mashhadiy bilan so'nggi adabiy hamkorligi: Amerikadagi 1500-yili ko'chirilgan noyob qo'lyozma	63
<b>Almaz ŪLVİ BİNNATOVA.</b> Əlişir Nəvainin bioqrafik əsərləri (" <i>Haləti- Seyyid Həsən Ərdəşir</i> ", " <i>Xəmsətul-Mütəhəyyirin</i> " və " <i>Haləti- Pəhləvani Məhəmməd</i> ")	70
<b>Салида ШАРИФОВА.</b> Жанровое новаторство Алишера Навои	92
<b>Nafas SHODMONOV, G'iyosiddin SHODMONOV.</b> Navoiy "Xamsa"si nashrlariga doir	96
<b>Rashid ZOHID.</b> "Tirguzur har xastani..." (bir g'azal sharhi)	102
<b>Uzoq JO'RAQULOV.</b> "Saddi Iskandariy"da "yo'l" va "tasodif" xronotopi	107
<b>Dilnavoz YUSUPOVA, Dr. Kemal Yavuz ATAMAN.</b> Ali Şir Nevaî'nin Nesayimü'l Muhabbet'inde Marifetullah Anlayışı	114
<b>Əlimuxtar MUXTAROV.</b> Nizami Gəncəvidən Əlişir Nəvaiyə qədər olan	120

tasviri

<b>Oyjamol BOBOQULOVA.</b> Qofiya g'azal shakli va mazmuni butunligini ta'minlovchi muhim poetik unsur sifatida	249
---	-----

## II SHO'BA. ALISHER NAVOIY VA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

### İKİNCİ OTURUM. ALİ ŞİR NEVAİ VE TÜRK DÜNYASI EDEBİYATI

#### PANEL II. ALISHER NAVAİ AND THE LITERATURE OF THE TURKIC PEOPLES

<b>Hamidulla DADABOYEV.</b> Eski o'zbek adabiy tilining rivojlanishida Alisher Navoiyning o'rni	256
<b>Ramiz ƏSKƏR.</b> Əlişir Nəvayinin risalələri Azərbaycan dilində	261
<b>Zulxumor XOLMANOVA.</b> Alisher Navoiy ijodida sotsiolingvistika masalalari talqini	264
<b>Elman QULIYEV.</b> Əlişir Nəvai və "Xəmsə" ənənəsi	270
<b>Iqboloy ADIZOVA.</b> "Nasoyim ul-muhabbat" da orifa ayollar tasviri	278
<b>Benedek PÉRI.</b> Mîr 'Alî-Şîr Navāyî eserlerinin erken modern dönem türk dünyasında alınılması	285
<b>Ataəmi MİRZƏYEV.</b> Özbək-azərbaycan ədəbi əlaqələri: Əlişir Nəvai və Məsihi Təbrizi	298
<b>Dilrabo QUVVATOVA.</b> Alisher Navoiy g'azallarida shamol, bulut va chaqmoqning obrazlantirilishi	304
<b>Darmon O'RAYEVA.</b> Alisher Navoiy ijodida ov va ovchilik motivining xalqona hamda diniy-irfoniy asoslari	308
<b>Ergash OCHILOV.</b> Alisher Navoiy va Xoqoniy Shirvoni	313
<b>Baxtiyor FAYZULLAYEV.</b> Adabiy ta'sir: Navoiy va Mashrab	318
<b>Islamjon YOQUBOV.</b> Navoiy poetik an'analarining mustaqillik davri o'zbek romanlariga ta'siri haqida mulohazalar	322
<b>Muqaddas ABDURAHMONOVA, Sabohat BOZOROVA.</b> Alisher Navoiy – omonimiya nazariyasi asoschisi	327
<b>Nodir JO'RAQO'ZIYEV.</b> "Yada" toshi timsolining Alisher Navoiy asarlarida qo'llanishi masalalari	334
<b>Salimaxon ESHONOVA.</b> Alisher Navoiyning Qo'qon shoiralari ijodiga ta'siri	338
<b>Гульзада СТАНАЛИЕВА.</b> Алишер Навои и проблемы развития тюркских языков (В контексте современной языковой ситуации)	343

əsrin ümumi ideyası Nizami ideallarına uyğun qurulmuş, Nəvainin öz sözləri ilə "Nizami sözünə bənzər söz deməklə" o, Nizami ədəbi məktəbinin layiqli davamı olduğunu təsdiqləmişdir.

Göründüyü kimi, Əlişir Nəvai sənəti əbədi sonsuzluğa yüksələrək əsrlər özlünün ədəbi qüdrət və bədii möhtəşəmliyini qoruyub saxlamış, türk mənəviyyatının inkişaf yolunda mühüm mərhələyə çevrilmişdir.

#### Ədəbiyyat

1. Araslı H. Nizami və türk ədəbiyyatı. Bakı, 1980
2. Azadə R. Nizami Gəncəvi. Bakı, 1979
3. Bertels. Böyük Azərbaycan şairi Nizami. Bakı, 1940
4. Cami. Yusif və Züleyxa. Bakı, 1989
5. Məhərrəmov Tahir. Əmir Xosrov Dəhləvinin "Məcnun və Leyli" poeması. Bakı, 1979
6. Nizami Gəncəvi. Sirlər Xəzinəsi. Bakı, 2004
7. Nizami Gəncəvi. Xosrov və Şirin. Bakı, 2004
8. Nizami Gəncəvi. Leyli və Məcnun. Bakı, 2004
9. Nizami Gəncəvi. Yeddi gözəl. Bakı, 2004
10. Nizami Gəncəvi. İskəndərnamə. Bakı, 2004
11. Nəvai. "Xəmsə". Daşkənd, 1996
12. Nəvai. Yeddi səyyarə. Bakı, 1947
13. Nəvai. Seçilmiş əsərləri. Bakı, 2004
14. Nağıyeva C. Azərbaycanda Nəvai. Bakı, 2001
15. İbrahimov M. Niyəsiz, necəsiz bir yazısan sən. Bakı, 1985

### "NASOYIM UL-MUHABBAT"DA ORIFA AYOLLAR TASVIRI

Iqboloy ADIZOVA

f.f.d., prof. (O'zbekiston)

#### Annotatsiya

Mazkur maqola jahon adabiyotshunosligida orifa ayollar siymosining talqin etilməmiş masalasiga bag'ishlangan. Bu muammoni yoritishda, Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" əsərinin erkin ijodiy tarjimasi hisoblangan, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" romanı so'fiylar tazkirası ob'ekti sifatida olingan. Asarda Navoiy keltirgan 35 orifa ayol qiyofasi, faollığı və dunyoqarashi yoritilgan. Falsafiy fikrlarining bugungi ijtimoiy hayotimizdagi o'rnini va vazifasını anıqlangan. Navoiy asaridagi ma'lumotlar taniqli nemis olimasi Annamarije Shimmel fikrləri ilə qiyoslangan.

**Tayanch tushunchalar:** Tazkira, so'fiy, mutasavvuf, vahdat, ishq, irfon, uns, xavf

#### Annotation

This article is devoted to the interpretation of Sufi women in world literature. In clarifying this problem, a free creative translation of Abdurahman Jami's work "Nafahot ul-uns" was taken as the object of Alisher Navoi's "Nasayim ul-Muhabbat". The image, activity and outlook of 35

... covered by Navoi are covered in the work. The role and tasks of philosophical thoughts in our ... today have been determined. The information in Navoi's work is compared with the ideas ... German scientist Annamarie Schimmel.

**Key words:** Tazkira, Sufi, Mystic, Unity, Love, Irfan, Uns, Danger.

... adabiyotshunosligida tasavvuf va tariqatlar, so'fiylik va mutasavvuflik kabi ... borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo bu jarayonda ayollarning ... yoritishga yetarli e'tibor qaratilmagan. Lekin dunyo adabiyotshunosligi tomomidan ... taniqli nemis olimasi Annamarie Schimmel o'zining bir qancha asarlarida, ... "Jonon mening jonimda"[4] kitobida Islom olamida xotin-qizlarning o'ni ... alohida e'tibor qaratgan.

Manbaning muallifi	Manbaning nomi
Jan Pier Kamyu	Shafqat hamshiralari
Muhammad Zehniy	Mashohir an-niso
Jaloliddin Rumi	Masnaviyi ma'naviy
Fariddin Attor	Ilohiynoma
Margaret Smit	Islomda Robiyya va boshqa so'fiy avliyolar siymosi
La'li Myuldyur	She'rlarida
Abdurahmon Jomiy	Nafahot ul-uns
Imom G'azzoliy	Asarlari
Abu Najib as-Suhravardiy	Asarlari
Abu Hafiz Umar as-Suhravardiy	Asarlari
Ibn Batutta	Asarlari
Ibn Arabiy	Tarjimon ul-ashvoq, Al-futuh al-makkiyya, Xotiralar va boshq.
Yaqub Qadriy Karaosma	Nur bobo (roman)
Faxruddin Iroqiy	Lama'at

Ayrim bahsli fikr-mulohazalar uchrashiga qaramay, olimaning ilmiy xulosalari ... shariyatga ega.

Annamarie Schimmel islom dunyosida ayollarga munosabat maqomini yoritgan ekan, ... ayollar" [4, 43-64] maqolasida orifa ayollar faoliyatini baholashga harakat qiladi. ... ma'lumotlarni olima jahon kutubxonalarida saqlanayotgan yuzlab arabiy va ... manbalarni o'rganish asnosida to'playdi. Jadvalda olima foydalangan manbalar ... keltirildi.

Annamariye Schimmelning maqolasida 35 ta so'fiy ayol haqida ma'lumot berilgan ... olima fikrlari va manbalar bilan tanishib, ularning barchasini ham so'fiylar ... kiritish unchalik to'g'ri bo'lmasligini ko'ramiz. Bu masalaga oydinlik kiritish ... ko'plab maxsus tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Balki ularni "orifa va obida ... deb atash fikrga aniqlik kiritishi mumkin. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ... ayollarni xuddi shunday atagan.

Ta'kidlaganimizdek, Annamarie Schimmel o'z tadqiqotlarida ko'plab manbalarga ... qiladi. Jumladan, asarlarida yuqorida keltirilgan 14 ta ilmiy risolani eslab o'tadi.



Ammo ular qatorida Alisher Navoiy asarlari, xususan, soʻfiy zotlar tazkirasini hisobga olib, “Nasoyim ul-muhabbat”ni tilga olmaydi. Olima asarlarida buning sababi koʻrsatilmagan. Balki Jomiyning “Nafahot ul-uns” asaridan foydalangani sababli, uning ushbu asariga nisbatan hisoblangan Navoiy asariga murojaat etmagan boʻlishi ham mumkin.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat min shamoyil ul-futuvvat” asari 1496-96-yillarda yaratilgan. Unda VIII asr boshlaridan XV asr oxirigacha Osiyo, Afrika va Evropa qitʼalarida yashab faoliyat olib borgan avliyo, soʻfiy va mutasavvuf alimlar haqida shayxlar haqida maʼlumot berilgan. Asar Oʻzbekiston, Turkiya olimlari tomonidan oʻrganilgan. Turli tadqiqotlar yaratilgan. Bir necha bor – Kamol Eraslan (1996), Hamidov Islomov (2011)lar tomonidan tanqidiy matni tayyorlangan. Asar muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yaratilish sabablari, manbalari, avliyolar rutbasining talabu shartlari haqida maʼlumot beriladi. Asosiy qismda 770 ta avliyoning (shundan 35 tasi ayol avliyolar) hasbi holi bayon etiladi. Koʻplab rivoyat va hikoyatlar keltiriladi. “Nasoyim ul-muhabbat” 2 marta chop etilgan. Birinchi marta 1996-yilgi nashrda 153 ta shayx haqidagi maʼlumotlar qamrab olingan. Ikkinchi marta, 2011-yilda mustaqillik sharofati bilan toʻliq tarzda chop etilgan “Nasoyim ul-muhabbat” Navoiy Toʻla asarlar toʻplamining 17-jildidan joy egallagan. Mazkur nusxada 770 ta avliyo hasbi holi qayd etilgan. Shulardan 35 tasini orifa ayollar tashkil etadi.

Navoiyning oʻzi “Nasoyim ul-muhabbat” Jomiy “Nafahot ul-uns min hazrat Muhammad al-quds” tazkirasining tarjimasini ekanligini: “To taʼrix toʻqquz yuz birdaki, ul kitobning taʼlifidini yigirma yil oʻtub erdi, Tengri taolo tavfiqi birla bu ulugʻ ishga ilik urdum va bu azim amrgʻa qalam surdum...”, deya taʼkidlaydi. Ammo muallif asarni erkin va toʻliq tarjima qilish yoʻlidan boradi. Unga Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi “Nafahot ul-uns”ga kirmay qolgan mashoyixlarni kiritadi. “Hind mashoyixi sharhi ham mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib hazrat Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj qalam soʻnggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oning hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.din bu zamongʻacha ulcha mumkin tilab topib, zikrlarin va baʼzi holotu soʻzlarin oʻz mahalida darj qildim”[3, 12]. Ushbu tazkirani yanada mukammallashtirganini eʼtirof etadi. Asariga piri murshidi Abdurahmon Jomiy haqidagi maʼlumotlarni ham kiritib, tazkirani yanada boyitganidan faxrlanadi.

Navoiy Jomiy asaridagi 618 ta shayx sonini 770 taga etkazdi. 152 ta alloma hasbi holini oʻz asariga yangidan kiritdi. Ustozi tazkirasini turkiyzabonlar uchun tushunarli boʻlishini oʻylab, soddalashtirdi va jiddiy tahrirdan oʻtkazdi: “...ul kitobda dagʻi avliyolar zikridin baʼzi soʻz kim, zamon ahligʻa koʻp muhtoj un-ilayh ermas erdi itnob vahdatin tarkin tutdum va bu tarjimadin oʻksuttum...” [3, 13]

Jomiy asarida shayxlar roʻyxati Abduhoshim Soʻfiy bilan boshlansa, Navoiyda esa Uvays Qaraniydan boshlanib, Abdurahmon Jomiy bilan yakunlanadi. Asarning “Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri” deb nomlangan soʻnggi qismida 35 ta orifa ayol (73-770) haqida ham maʼlumot beriladi. Ularning tartibi Robiai Adaviyadan boshlanib, Bibi Chirchik Munajjima bilan tugaydi.

Navoiy orifa ayollar haqida maʼlumot berar ekan, oʻzigacha bu borada fikr bildirilgan 3 ta asarni – Shayx Muhyiddin Arabiyning “Futuhoti Makkiya” (73-bobda ham taʼkidlaydi), Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” va Shayx Abdurahmon Sulamiyning

“Tazkirat So‘fiya”-ni “nisvat un – obidot va niso un-orifot ahvoli zikrida alo haddihi ma‘lumot berish” qilibdur” [3, 482], deya eslaydi.

Navoiy asar muqaddimasida, tazkirasini yana-da mukammallashtirish maqsadida Muhammad Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridan foydalanganini ham xotirlaydi. Unda so‘fiy ayollardan birgina Robiayi Adaviya haqidagina ma‘lumot uchraydi. Attor o‘z asarida “...ular guruhidan bo‘lgan ixlos masturasi, ishq va ishtiyoqda kuygan, yaqinlik va ehtirosga erishgan” [5, 79] ayolga bag‘ishlangan qismning keltirilishini quyidagicha izohlaydi. Bu izoh Muhammad Navoiy tazkirasida 35 orifa ayolning kiritilish sabablaridan birini aniqlashga ham asos beradi: “...Agar Bibi Robiani erkaklar orasida zikr qilinganining sababini so‘rasalar, unga javob shuki, Payg‘ambar s.a.v. buyurubdurlar: Alloh sizlarning suratlarigizga ehtiros, balki ko‘ngillaringizga boqar!” [5, 79]

Ko‘ringanidek, Annamarie Shimmel ham, Alisher Navoiy ham asarlarida 35 tadan so‘fiy ayollar haqida ma‘lumot keltirishadi. Ammo ularning ro‘yxatida uyg‘un va tafovutli nomlar bor. Jumladan, ikkala muallifda ham bir xil so‘fiy ayollar tasviri quyidagi 8 tani o‘z ichiga oladi, xolos: 1. *Robiyya al-Adaviyya*, 2. *Mariyam al-Basriya*, 3. *Rayhona al-Valiyya*, 4. *Robiyya ash-Shamiyya*, 5. *Shavona*, 6. *Sari as-Soqotiyning shogirdi*, 7. *Fotima (al-Adaviyning qizi)*, 8. *Fotima bint Mutanna*.

Navoiy asarida keltirilgan 35 tadan 27 tasi yangi ism, Shimmelda ham 27 ta yangi ism uchraydi. Bu holat ikkala manbada jami 62 ta orifa ayol faoliyati yoritilgan, degan fikrga kelishimizga asos beradi. Ammo ayrim vaziyatlarga oydinlik kiritish taqozo etiladi. Jumladan, Navoiyda 5 ta, Shimmelda 7 ta Fotima ismli ayol keltiriladi. Buning asosiy emasligini aniqlash uchun, albatta, maxsus tadqiqot talab etiladi.

Ijodkorning orifa ayollar haqidagi mulohazalarini o‘qir ekanmiz, ular faoliyatini ifodalovchi Navoiy ijodiy takomilida va ayrim asarlarining yozilishiga ham turkib qo‘yilganining guvohi bo‘lamiz.

Asarda Navoiy tasavvuf tarixidagi an‘anaga binoan Robia Adaviya hasbi holini ifodalash bilan so‘z boshlaydi. Hajm jihatidan qisqa satrlarda uning mo‘tabar siymosini ifodalash uchun ochib bera oladi. Uning hayoti, faoliyati bilan bog‘liq hodisalar va tafakkur jarayonidagi falsafaga yo‘g‘irilgan irfoniylar g‘oyalarini aniq va tushunarli tarzda ifodalaydi. Jumladan, keltirilgan ayrim fikrlaridan Robiyaning dunyoni anglash ko‘lami, tafakkur tarzi, inson, odam va Olloh munosabatlari borasidagi qarashlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish mumkinki, bu Navoiyning betakror dahosi va mahoratining ifodasidir: “Salomat dunyoda aning tarkidadur va sen dunyoga oludasen. Robia so‘zidurki, har nimaga ehtiros beradur va ma‘rifat samarasi yuz Tengriga kelturmaktur”; “Oz sidq ila astag‘firulloh karamlikdan, astag‘firulloh deymen”; “...Banda Tengri taolaga taqarrub tilar nimalardin karamlikning‘i qaysidur? Ul dedi, uldurki, bilgayki, dunyo va oxiratda andin o‘zgani sevmas”; “Anduhum andin emaski, anduhgindurmen. Anduhum andindurki, anduhgin emasmen!”

Navoiy asarining hajm qamrovidan kelib chiqib, so‘fiy ayollar haqida qisqacha ma‘lumot berish yo‘lidan boradi. Jumladan, asarda Robiayi Adaviyaning Sufyon Savriy bilan suhbatinigina keltiradi, xolos. Ammo u tayangan manbalardan biri bo‘lgan “Tazkirat ul-avliyo”da Robia bilan bog‘liq 33 ta rivoyat keltiriladi. Navoiyning maqsadi so‘fiy ayollar haqida to‘liq ma‘lumot berish emas, balki kitobxonlarni ular bilan tanishtirishdan iborat bo‘lgan.

Navoiy orifa ayollarni tavsiflar ekan, ularning dunyoqarashini aniq tasvirlash bir qatorda, o'z zamondoshlari va avlodlarini ma'naviy kamolotga yetaklash tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Jumladan, Lubobat ul-muta'abbida r.a.ning bir qancha fikrlarini keltiradi: "Ul debdurki, men Haq s.t.din uyalurmenki, meni g'ayr bila ma'naviy ko'rgay" [3, 483]; "... Tengridin ani tilaki, sendin xushnud bo'lg'ay va seni orifa xushnudlar maqomig'a etkurgay va seni do'stlari orasida gumnom qilg'ay" [3, 483]. Bu hikmatona fikrlar barcha davr kitobxonini ma'naviy uyg'otishga xizmat qiladi.

Navoiy orifa ayollar ro'yxatining boshida Robiya Adaviyani ko'radi. U mulohazalarini unga qiyosan keltiradi. Maryam Basriya ham Basrada Robiya bilan yuz suhbatdoshlikda umr kechirgan. Uning xizmatini qilgan. U kabi hayoti, yashash tarzini ham ishqda ko'rgan. Hattoki, vafoti ham ishq so'zini eshitgani ta'sirida ro'y bergamini eslaydi.

Nogahon ilohiy ishqni u anglab,

Hushdin ketdi, "Alloh" deya shivirlab [4, 47].

Navoiy uning bir fikrini keltiradiki, bu inson zotiga qanoatdan, inson rizqi yaratilgani, harakat bor joyda nasibasiz qolmasligidan saboq beradi: "Ul debdurki, har qanday ro'ze g'ame emadim va aning talabig'a ranj tortmadim, to bu oyatni eshittimki, "Va sizni rizqingiz osmonda va sizga va'da qilingan narsa bordir" [3, 483].

Navoiy Fotimayi Barda'yaning dunyoqarashini birgina jumla bilan ochib beradi: "Aytadilarki, shathiyot<sup>35</sup> [6, 463-b.] so'zlovchi oriflardan edi". Muallif mazkur qarashni aniqlashtirish uchun "Kim meni eslasa, u bilan birgamen" qudsiy hadisini sharhlagan ta'rifini keltiradi: "Ul soyil bilan soate so'zlar aytti va so'ngra dediki, "Zikr shudirkin, men Haqni davomli zikr etganing holda uning zikr etganini mushohada etasan. Sening zikr uning zikrida yo'q bo'lib ketadi. Faqat uning seni zikr etgani qoladi. Orada makon ham zamon ham bo'lmaydi"[3, 487]. Ko'rinadiki, Navoiy Fotimai Barda'yaning fikrlari chuqur mushohada qiladi. Bu kabi mulohazalar muallif irfoniy dunyoqarashining shakllanishi va kengayishida muhim ahamiyatga ega. Vahdati vujud falsafasi bilan uyg'un g'oyalari asarlari uchun adabiy asos sifatida qabul qiladi. Teran ma'nolarga mulohazalaridan ko'plab asarlarini yaratishda foydalangani sezilib turadi. Bu kabi shoirning falsafiy asarlari va lirikasida tasavvufiy talqinlarning kuchayishiga zamon yaratadi. Ijodkor asarlarining falsafiy sarchashmalari haqida o'ylaganda, mazkur manbalarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. "G'iyos ul-lug'ot" muallifi shathiyot so'zini izohlar ekan, mashoyixlar bunday qarashlarni qabul ham, inkor ham qilmaydilar, - deydi. Navoiyning mulohazalaridan va asarlaridagi nuqtayi nazaridan u bu kabi qarashlarga ijtimoiy munosabatda bo'lganini sezish qiyin emas.

Xurosonlik Fotima Nisoburiya haqida ham Navoiy ehtirom bilan xabar beradi: "Abu Yazid Bistomiy q.s. anga sano aytibdur va Zunnun Misriy andin savollar qilibdur" [3, 487]. Abu Yazid "aytgan biror ma'lumotimni unga ayon emasligini ko'rmadim" [3, 487]. Bu kabi xabar uning bilim qamrovining kengligini, donishmandligini e'tirof etadi.

<sup>35</sup> Muhammad G'iyosuddin "G'iyos ul-lug'ot" asarida shathiyot kalimasini mukammal izohlab beradi: "Shathiyot - irfoniy lug'atlarda zohiran shariatga zid narsalar va shariatga xilof so'zlarni tilga olishdir, deyishgan. Va "Kasbiy" yozilishicha, mastlik va zavq ta'sirida beixtiyor, ba'zan vusul holatida sodir bo'ladigan so'zlardir. Jumladan, Mas'ud Hallojning "anahaq", Junaydning "laysa fi chubbati sivallohi" va Boyazidning "subhoni mo'a'zama sha'ni" so'zlar kabi. Mashoyixlar mazkur shariatga xilof kalimalarni inkor ham, qabul ham etishmaydi ("Ma'dan ul-maoniyy"dan).

Mashoyixlardan biri Zunnun Misriydan ayollar qavmidan kimni ulug' hisoblaysan deb so'raganda, "Makkada bir zaifa erdiki, ani Fotima Nisoburiya der erdilar. Qur'on ta'limi fahmida so'zlar aytur erdiki, manga ajib kelur erdi" [3, 487], deb e'tirof etadi. Bu fikrni Yazid va Zunnunning Fotima haqidagi fikri uyg'un ekanligini ko'rsatadi.

Kafalik Ummi Hasson dunyoqarashi ham o'ziga xos. Navoiy uning olamni va o'zidan maqsadni anglash maqomidan havaslanadi. Qanoatini targ'ib etar ekan, Sufyonning hikoyasini keltiradi. Uning fikricha, bir kuni Ummi Hasson uyiga borsa, o'zidan boshqa narsa yo'q ekan. Sufyon, amakilaringga aytsang, senga ko'mak beradi deb. Hasson shunday javob beribdi: "Ey Sufyon, mening ko'z va ko'nglimga bundin yana ulug'roq erding. Men hargiz dunyoni savol qilmon ul kishidinki, anga molikdur va mutasarrif. Nechuk savol qilg'aymen andinki, anga qodir ermas? Ey Sufyon, ko'ngim, men sevmasmenki, manga bir dam o'tgayki, ul dam Tengridin g'ofil bo'lub, aning g'ofiliga mashg'ul bo'lg'aymen" [3, 487]. Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida mol-dunyoga ekanlikda insonni Ollohdan uzoqlashtiruvchi vosita deb qaraladi. Ikkinchidan insonning o'zini faqat Ollohga qaratilishi lozim. Ugina qodirdir. Uchinchi muhim xulosa, Tangridan boshqa narsalar, xususan, mol-dunyoga mashg'ullik Ollohdan g'ofillikka olib keladi. Ko'rinadiki, Ummi Hasson dunyoqarashidagi komillik Navoiy asarlaridagi nuqtayi nazar bilan nihoyatda uyg'un. Bular ulug' shoirning dunyoqarashi va adabiy merosi genezisi bo'lgan fikr yuritishimizda muhimdir.

Navoiy asarida keltirilgan Robiayi Shomiyaning "Ko'nglingda Tangridan o'zga hech narsa bo'lmasagina, sen unga yetgaysen", degan fikri ham Hasson fikrlariga hamohangdir. Uning sababli, Navoiy unga ham alohida e'tibor qaratgan [3, 486]. "Robiayi Shomiya Ahmad Shahravoriyning zavjasi edi. U ayoli ahvolining ziddiyatli ekanligini so'zlab, goh ishq, goh xavf, goh xavf maqomidagi ruhiyatini izohlaydi. Ishq g'alabasida u "mahbub ko'zumdan va o'zidan g'oyib bo'ldi, ammo ko'nglumdan g'oyib bo'lmadi", uns holatida "jismim mahabudosh bilan, qalbim jononim ila ulfatdir", xavf holida "yo'l ozig'im ozdir, manzilimga erazolmaydi. Ozig'im ozligiga yig'laymi yo yo'lning uzoqligiga" kabi fikrlarini eslaydi. Uning uns, xavf kabi holatlar tasavvuf ta'limotining asosini ifodalavchi maxsus bosqichlarni anglatadi. Mazkur fikrlarning har biri bir kitob darajasida izohlanishni taqozo etadi. Ammo Navoiy asarida ushbu tushunchalarni Robiayi Shomiya misolida nihoyatda sodda va tushunarli tarzda izohlab beradi. Natijada, ularning mohiyati, bir-biridan farqli jihatlari masalada yetarli tasavvurga ega bo'lamiz.

Ufayrayi Obidaning ko'zlari ko'r edi. Undan biron ko'rmaslik juda og'ir bo'lsa deb so'rabdi. Shunda u "Tangridan yiroqlik va Haqqa erishish yo'lida ko'ngul erdiki undan og'irroqdir", - deya javob bergan ekan. Haqiqatan ham, Tangridan yiroqlik va ko'ngil ko'rliqi inson fojialarining asosidir. Insonning har bir harakatida Olloh nazarini ko'rib yashashi jamiyatning poklanishiga asos qo'yadi. Tangrini unutmagan, ko'ngil erdiki ochiq insonlarning hayoti charog'on bo'ladi. Ulardan taralgan nur ijtimoiy hayotda yiroqlik urug'larini sochishga xizmat qiladi. Taraqqiyot va kamolotga qo'yilgan tamal toshi bo'lganini bajaradi.

Ko'rinadiki, Navoiy tazkira janri talablaridan kelib chiqib, ixchamlik va ma'naviy qat'iolikka alohida e'tibor qaratadi. U tazkirasida orifa ayollarni jamlar ekan, o'z davrida ushbu mashhurlarni tanlaydi va ayrim mulohazalarinigina e'tirof etadi. Ammo, shu e'tiroflar bilan insonning dunyoqarashi va tutgan yo'li borasida mukammal tasavvur beradi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da Navoiyning mahorati fikr ifodasi uchun badiiy tasvirlar topish va tanlashda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, so‘zlarni qo‘llashda san’atkorligini alohida ta’kidlash joiz. Muallifning asarda qo‘llagan so‘zlar tizimi avliyul ta’fakkur chirog‘idan nurlanib turadi. Jilolanadi. Takror, tardi aks san’atlari bu badiiy muhim vazifalarni bajargan. Ularning fikrlaridagi falsafiylik mazkur san’atlar vositasi yuzaga chiqadi. So‘zlar olmos kabi tovlanadi. Orifa ayollar o‘z suhbatdoshlarining nutqlaridan foydalanib, ularga ma’rifat, ta’lim va tarbiya berish yo‘lidan boradilar. Ummu Ali Zavjayi Ahmad bin Xizravayhning oldiga uning dong‘ini eshitib, ustoz tutim maqsadida “Balx ahlidin bir zaifa keldi va dediki, kelibmen. Tengri taolaga taqarrub tilagaymen, sening xidmating vasllasi bila. Anga dedi: nechuk aning xidmati vasllasi bila manga taqarrub bilmassen?”

Islom va tasavvuf ilmi - inson axloqini takomillashtiruvchi tarbiya vositasi. Ular orqali halollik, to‘g‘rilik, saxovat, ota-ona va yaqinlarni qadrlash, Olloh ne‘matlarini g‘animat bilish, nafsini va o‘zini tanish g‘oyalari targ‘ib etilgan. Navoiyning ko‘p asarlarida mazkur g‘oyalar ifodasi yetakchilik qiladi. “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” hadisi hammamizga ma’lum. “Nasoyim ul-muhabbat”da ulug‘ mashoyixlar hayoti misolida mazkur g‘oyaning hayotiy isbotini ko‘ramiz. Shayx Abu Abdulloh Hafif Laylat ul-jannat nuriga muyassar bo‘lish maqsadida tomga chiqib namoz o‘qiyotgan edi. “Onasi Ummu Muhammad uy ichida. Haq s.t.ga mutavajjih o‘lturub erdi. Nogoh “Laylat ul-qadr” anvariga unga zohir bo‘la boshladi. Un chiqardiki, Ey Muhammad, ey farzand ulcha sen anay tilaysen, mundadur! Shayx tushti va anvorni ko‘rdi. Va onasi ayog‘iga tushti, andin so‘ng Shayx aytur erdiki, ul vaqtdin so‘ngra onam qadrin bildim” [3, 489]. “...ulcha sen anay tilaysen, mundadur” jumlasida zamirida teran falsafa va hikmat mujassam. Bu orqali ijodkor birinchidan, ona zotining inson hayotidagi o‘rniga, uning qadriga, ikkinchidan, osmondan izlangan barcha ehtiyojlar erda ekanligiga Rumiya falsafa bilan o‘quvchi e’tiborini qaratmoqda.

Asarda orifa ayollar qiyofasini yoritishda ularning o‘z nutqidan foydalanish tamoyilini etakchilik qiladi. Ularning nutqiy sathlari qiyofalarini mukammal ifodalab beradi. Shu sababli ham, qisqa hajmda har bir obrazning surati va siyrati tugal echimga ega bo‘ladi. Ular haqidagi rivoyatlar tanlanishida ham muallif o‘zining badiiy niyatidan kelib chiqadi va muvaffaqiyatli tanlovni amalga oshiradi.

Orifa va so‘fiy ayol maqomi berilgan mazkur muhtarama zotlar faoliyati va taqdirini chuqur o‘rganish, bizni Sharq ayoli tafakkur teranligidan bahramand etadi. Ular insoniyat ma’naviyatining takomillashuviga ulkan hissa qo‘shgan. Yovuzliklarga qarshi yo‘lchi ezguliklar nuri bilan yoritgan. Ko‘ngil ko‘zlarini o‘z tafakkur mash’allari bilan charog‘on etishgan. Ularning ilm sarchashmalaridan bahramandlik bugun ham insoniyatni zulmatdan qutqaradi. Tanazzulga mahkum etuvchi urush, dunyoga hirs qo‘yish va o‘zlikni unumga nafsga qul bo‘lish kabi illatlardan forig‘ etadi. Ayollarning jahon ijtimoiy hayotidagi yuksak maqomini belgilashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. Toshkent: Adabiyot va san’at, 1969.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT, 13-tom, Toshkent: Fan, 1997.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT, 17-tom, Toshkent: Fan, 2001.



1. Annamarie Shimmel. Jonon mening jonimda. Toshkent: Sharq, 1999.
2. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. Toshkent, 2013.
3. Muhammad G'iyosuddin. G'iyos ul-lug'ot. 1-jild, Dushanbe, Adib, 1987.

## ALĪ-ŞĪR NAVĀYĪ ESERLERİNİN ERKEN MODERN DÖNEM TÜRK DÜNYASINDA ALIMLANMASI

**Benedek PÉRI<sup>36</sup>**

*Eötvös Loránd University, Budapest.  
Director of the Institute of Oriental Studies,  
head of the Department of Turkic Studies, PhD*

### **Abstract**

*Alī-Şīr Navāyī is usually called the founder of the classical Central Asian Turkic literary tradition often referred to as Chagatay. However, Navāyī's activities had an impact well beyond Central Asia, the geographical region where Chagatay was used as a literary language. Though research on the topic has just begun it has soon become clear that Navāyī's oeuvre exerted enormous influence on the development of the Ottoman classical tradition, his works were read by many poets in Safavid Iran and read by literary connoisseurs in Mughal India. Manuscripts of his works, some of them illustrated, often travelled thousands of kilometres and were highly valued assets in libraries from the second half of the 15th century. The present paper, based on a plethora of various sources, manuscripts, historical accounts, and literary studies, is meant as a first step in a series of articles. As such it has a two-fold goal. It aims both at providing a general picture of the role Navāyī played in the Persophone Turkic world and also at indicating the possible directions further research should take.*

**Keywords:** Navāyī, manuscripts, reception history

### **Annotatsiya**

*Alisher Navoiy odatda chag'atoy deb ataladigan mumtoz O'rta Osiyo turkiy adabiyotining asoschisi deb ataladi. Biroq Navoiy faoliyati chag'atoy tili adabiy til sifatida ishlatilgan geografik mintaqaga bo'lgan O'rta Osiyodan tashqarida ham ta'sir ko'rsatdi. Bu mintaqadagi tadqiqotlar endigina boshlangan bo'lsa-da, Navoiy ijodi Usmonli mumtoz an'anasi uchun ulkan ta'sir ko'rsatgani tez orada ma'lum bo'ldi, uning asarlari Eron Safaviylar davlatlariga taqlid qilingan va Mug'al Hindistonidagi adabiyot ixlosmandlari tomonidan o'qilgan. Uning asarlarining qo'lyozmalari, ularning ba'zilari tasvirlangan, ko'pincha minglab kilometrlarni o'tkazgan va 15-asrning ikkinchi yarmidan boshlab kutubxonalarda juda qadrlangan. Ko'plab nusxalar, qo'lyozmalar, tarixiy hikoyalar va adabiy matnlarga asoslangan ushbu maqola bir qator tadqiqotlar uchun birinchi qadam sifatida nazarda tutilgan. Shunday qilib, u ikki tomonlama maqsadga ega. U Navoiyning turkiy til dunyosida tutgan o'rni haqida umumiy ma'lumot berish, shunday qilib, keyingi tadqiqotlar olib borishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** Navoiy, qo'lyozmalar, qabul qilish tarixi.

<sup>36</sup> Bükalem Türkçe çevirisi Eötvös Loránd Üniversitesi, Türkoloji Bölümü doktora öğrencisi, sayın Damla Saygılı tarafından yapılmıştır.